

QADIMIY MUSIQIY ASBOBIMIZ "CHANG"

Mahmudova Olimaxon Yusufjon qizi

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

"Xalq cholg'ularida ijrochilik" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek xalq cholg'ularining shakllanish tarixi va musiqiy merosimizda tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan. O'rta asrlarda mavjud bo'lgan torli, damli hamda urma-zarbli cholg'ularning nomlari va ular xususida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Qadimiy musiqiy asbobimiz "Chang"*

Kalit so'zlar: *Milliy cholg'ular, tarixiy qo'lyozmalar, musiqiy risolalar, etnograf, musiqiy meros, ansambl va orkestr.*

Insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyotlaridan biri bo'lgan musiqa san'ati bizning yurtimizda ham shonli va qadimiy tarixga ega. Xalqimizning musiqa madaniyati tarixi shu xalqning umumiy tarixidan kelib chiqib, asrlar suronida toblandi va takomillashib bordi.

Musiqa - insonlarning ezguliklar olamiga yetaklovchi ma'naviy vosita hisoblanadi. U shundau vositaki, yangi avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi, inson ruhiy olamiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, tinglovchi dunyoqarashini shakllantiradi. Insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi, his-tuyg'ularini boyitadi. Kishilarning go'zallik tuyg'usini oshirmay turib, ma'naviy barkamol inson haqida gapirib bo'lmaydi. Yurtimizda o'zlarining sevimli qo'shiqchisi yoki musiqachisi bo'lmagan qishloq yoki mahalla bo'lmasa kerak. Deyarli har bir oilaning uyida, mehmonxonasida qandaydir cholg'u asbobining borligi yurtimizning naqadar musiqaga, kuy qo'shiqqa shaydolidan darak beradi.

O'zbek xalqi qadimiy boy musiqiy merosga ega bo'lib, bunda musiqiy cholg'ularning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Musiqiy cholg'ular xalqimizning moddiy hamda beqiyos ma'naviy boyligi hisoblanadi. Chunki, har bir xalq o'z milliy merosi, davrlar osha yuzaga kelgan an'analari va qadriyatlarini milliy ohanglar orqali tarannum milliy cholg'ulariga egadir.

XIX asr oxiri va XX asrning o'zida Chang va Qashqar rubobi shakllandi hamda cholg'u ijrochiligidan keng o'rin egalladi. Ud va Qonun cholg'ulari qayta tiklanib, ijrochilik amaliyotini sezilarli darajada boyitdi. Afg'on rubobi hamda Kurd sozi ham oziga xos jozibasi bilan cholg'u ijrochiligidan munosib orin oldi. Musiqiy cholgularning ta'rifi, shakllari, tuzilishlari, tarkibiy jihatlari, ijrochilari bilan bog'liq ma'lumotlar, asosan o'rta asrlardan boshlab badiiy adabiyotlar hamda musiqiy risolalarda yoritila boshlandi. Demak, o'rta asrlarga kelib, qadimdan shakllanib, takomillashib kelgan xalq musiqiy cholg'ulari ijrochilik amaliyotida o'z o'rnini topgan.

Chang cholg'usi juda ko'hna va qadimiy cholg'ulardan hisoblanadi. Abu Nasr Muhammad Forobiyning ta'kidlashicha o'sha davrdagi changning 15 ta tori bo'lgan, ikki oktavalik musiqa cholg'ulari guruhiga kirgan. Oralig'i teng yarim ton tovushlarga ega

bo'lgan. Risolada ta'rif berishicha barcha cholg'ular ashula, raqs, yakkanavoz va ansambl ijrochiligiga jo'r bo'lishda foydalanilgan. Ayniqsa ud cholg'usida ijro etilayotgan kuyga, tanbur, rubob, chang uyg'un jo'r bo'lishi uchun, sozlash usullarini tushuntiradi. Sharqning ulug' allomasi Al-Forobiy musiqa ilmining bir bo'limi sifatida cholg'ularni o'rganuvchi cholg'ushunoslik sohasiga asos soldi. Bu soha keyinchalik boshqa olimlarning asarlarida ham keng boyitildi va rivojlantirildi.

Darvish Ali (XVII) ning ma'lumotiga qaraganda chang cholg'uvchilar homiysi Zuhraga bag'ishlangan. Ta'riflangan changning yetti maqom ijrosi uchun yigirma olti tori va yetti pardasi bo'lgan. Risoladagi ta'rif bo'yicha cholg'u asboblarning yettitasi: tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qubuz, g'ijjak, o'sha davrda juda keng tarqalgan cholg'ular edi. Darvish Alining ma'lumotlari musiqa amaliyotida dastlab ansamblida uyg'un jo'r ovoz hosil qiladigan torli-noxunli va torli-kamonchali cholg'ular qo'llanilganligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi.

Taniqli cholg'uchi Darvish Alidan ud va chang chalish mahoratini egallagan, uning shogirdi, mohir sozanda Mavlono Zaynullo Bedaniy Rumiyo ko'pgina peshrav (Isfaxon, saqil, peshrav va boshqalar) ijodkori edi.

XV-XVII asr miniatyuralarda chang (arfa) doyra, lyutnya, borbod, qonun, ud, g'ijjak, soz, nay, rubob, tanbur cholg'uchilari tasvirlangan. Cholg'u asboblardan tashqari qarsak jo'rligida ijro etilgan raqslar ham tasvirlangan. Chang, lyutnya, ud, kabi musiqa cholg'ulari haqida Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa", asari qo'l yozmasiga ifoda etilgan rasmlar guvohlik beradi.

A.Navoiy (1441-1501) o'zining "Xamsa" sida yozilgan dostonlaridan biri "Sab'ai Sayyor" da Bahrom Go'r haqidagi qadimiy afsonani yangicha talqin etadi. Asar qahramoni-chang cholg'usini Dilorom deb atagan. Shoir uning cholg'usini musiqa timsoli sifatida gavdalantirgan.

Chang eng keng tarqalgan cholg'u sifatida ko'plab adabiy manbalarda qayd etiladi. Chang cholg'ularini o'z asarlarida Firdavsi-Ozoda, Navoiy-Dilorom, Nizomiy esa Fitna deb ataganlar.

Hozirgi qo'llaniladigan chang cholg'usi O'rta Osiyo va boshqa xalqlar orasida keng uchraydi. Changdan o'zbek, tojik, uyg'ur va rus xalqlari ham keng foydalanadilar. Ruslar uni «Simbal» deb atashadi. U tut, yong'oq, o'rik va boshqa yog'ochlardan yasaladi. Changning quloqlari 76 ta bo'lib, u chang korpusining o'ng tomoniga o'rnatiladi, pardalari xromatik yarim tonlikdan iborat. Changda turli millat musiqa asarlarini, hamda G'arbiy Ovroqpa klassik kompozitorlarining yirik va murakkab asarlarini ijro etish imkoniyati yaratildi. Uning diapozoni juda keng bo'lib, uch oktavaga yaqin. Changni chalish uchun ishlatiladigan cho'p, g'arovdan yoki qamishdan ishlangan bo'lib, yumshoq ovoz berish uchun uchiga rezinka o'rnatiladi.

Chang ansambl va orkestrlarda eng asosiy boshlovchi rolni o'ynaydi. U yakkavozlikda ham mashhur bo'lib, yuqori texnikaviy asarlarni ijro etish uchun qulaydir. Chang sozining mohir ijrochilaridan marhum Faxriddin Sodiqov, Matyusuf Xarratov, Fozil

Xarratov, Tilash Xo'jamberdiyev, San'at Ruzmatovlarning porloq xotiralari qalblarda abadiy saqlanadi. Hozirgi kunda xalqimizga xizmat qilib kelayotgan changchilar: Ahmad Odilov, Rustam Ne'matov, Fazilat Shukurova, Abdurahmon Xoltojiyev, Baxtiyor Aliyev, Temur Mahmudov, Abdusalom Mutalov, Tohir Sobirov, Ismoil Jobirov, Xurshida Muhammadqulova va boshqalar.

Markaziy Osiyoning barcha hududlarida Chang cholg'u asbobi uchraydi. Hozirgi kunda Markaziy Osiyo hududida qadimiy musiqa cholg'ulari bilan bir qatorda ko'p ovozlilikka moslashtirilgan (rekonstruksiya) musiqa cholg'ulari mavjud. Markaziy Osiyoning yirik shaharlaridan Toshkent, Dushanbe, Olma Ota, Samarqand shaharlarida Markaziy Osiyo va Umumjahon miqyosidagi musiqiy anjumanlar o'tkazilib, milliy musiqa ijrochiligiga xos asarlar, jumladan milliy musiqa cholg'ularining ijrolari namoish etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akbarov II. Musiqa lug'ati T., San'at 1990 yil.
2. Vizgo T. O'rta Osiyo musiqa asboblari. Moskva., 1980 yil.
3. Karomatov F. O'zbek chlg'uchilik musiqasi. Moskva., Muzika 1980yil.
4. Odilov A. O'zbek xalq cholg'u asboblari ijrochilik tarixi. Toshkent., O'qituvchi 1995 yil.
5. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent., Fan., 1993 yil.
6. Petrosyants A.I. Cholg'ushunoslik T., San'at 1990 yil.
7. Odilov A. Chang darslik T., O'qituvchi 2002 yil.
8. Abdurauf Fitrat. Ozbek klassik musiqasi va uning tarixi.- T., 1993